

---

## TOSHLOQDA YANGI YIL BAYRAMI OLDIDAN SAVDO YARMARKASI TASHKIL ETILDI

Mamlakatimizda har yili bayramlar arafasida aholini sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida savdo yarmarkalarining tashkil etilishi an'anaga aylangan.

Xususan, Toshloq tumani markazida ham tashkil etilgan savdo yarmarkasida mahalliy dehqonlar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan 30 turdan ziyod qishloq xo'jaligi hamda oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etilmoqda.

Toshloqliklarning bayram dasturxonini to'kin bo'lishini ta'minlash, narx-navoni keskin oshib ketishining oldini olish maqsadida mutasaddilar tomonidan savdo yarmarkalarida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining arzon narxlarda sotilishi ta'minlanmoqda.

2023-12-21 13:38:45